

## O`TKIR QALAMKASH MATNAZAR ABDULHAKIM

**Quchmurodova Xusniya Xurram qizi**

*Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

**Anantatsiya:** *Ushbu maqolada jo`shqin ijodkor, shoir va tarjimon Matnazar Abdulhakim hayot yo`li va serqirra ijodi haqida so`z yuritib, shoirning g`azallaridan birini tahlil etiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Tazod, talmeh, qofiya, radif, mutloq qofiya, g`azal.*

Bizga yaxshi ma`lumki adabiyotimizda Navoiy, Lutfiy, Ogahiy, Bobur kabi buyuk shaxslar nomini eshitishimiz bilan ko`z oldimizda mohir g`azal yozuvchilari gavdalanadi. Ular turkiy tilda ko`p va xo`p ijod qilgan shaxslardir. Keyin ham adabiyotimizda ko`plab g`azalxonlar o`tdi. Ular o`zlaridan bizga ulkan adabiy me`ros qoldirdi. XXI asrga kelib she`r yozishga mohir shoirlar ko`p bo`lsa ham negadir g`azal yozuvchilar ancha kam. G`azal o`ziga yarasha murakkabligi va qoidalari ko`p bo`lgani uchun shoirdan ancha katta salohiyat va tug`ma istedod talab qiladi. Mana shunday istedod egasi Matnazar Abdulhakimdir.

Matnazar Abdulhakim 1948 yil 20 fevralda Xorazm viloyatining Urganch tumanida tug`ilgan. O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi (2000). Rossiyaning Taganrog shahridagi Rus tili va adabiyoti institutini tamomlagan. «Tiniq tonglar» (1982), «Fasllar qo`shig`i» (1984), «Qor qo`shig`i» (1990), «Yonimdagi daryolar» (1993), «Qorachikdagi dunyo» (1994), «Bir kuchoq gul», «Oydinlik» (1997), «So`nggi yaproq» (1999) kabi kitoblari nashr qilingan. Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Majdiddin Bag`dodiy, Pahlavon Mahmud, Mirzo Bedil asarlarini forsiydan o`zbek tiliga tarjima qilgan. U hayoti davomida ko`plab she`rlar va g`azallar yozgan. Ko`plab ilmiy ishlar va tarjimalar bilan shug`ullangan. Hozirda uning yozgan g`azallaridan birini tahlil qilsak:

Mening Layliyu Shirin o`rnida sen sarvinozim yo`q,  
Na Farhodga, na Majnunga, iloj qancha, qiyosim yo`q.  
Sen har bir iltifot etgan ko`ngil osmonda lochindir,  
Qolib chetda nigohingdan, mening bu imtiyozim yo`q.  
Ko`zimdan ko`ngilima botdi umidlar sen ketib qolgach,  
Quyosh yanglig` lovullashga tunganmas ehtirosim yo`q.  
Sen aytgan ta`nalarga tog` chidar, toshlar berar bardosh,  
Mening bo`lsa vujudim tog` emas, toshdan libosim yo`q.  
Qayon ketmak kerak sensiz, bilolmasman sira, lekin-  
Ming ildiz otganim bu elda bir lahza turosim yo`q.  
Seni sevdim va sensiz men chaqinman, nuri yo`q zarra,  
Seni sevdim va sensiz qaldiraqman, guldirosim yo`q,

Unutding nogohon sen Matnazarni, bu azobingga  
Seni yod aylamakdin o`zga xech bir e'tirozim yo`q.  
Shoirning bir g`azalini tahlil qiladigan bo`lsak,  
Mening Layliyu Shirin o`rnida sen sarvinozim yo`q,  
Na Farhodga, na Majnunga, iloj qancha, qiyosim yo`q.

Ushbu g`azalning dastlabki baytida oshiq mashuqasini Layli va Shiringa qiyoslaydi. Lekin oshiq o`zini Farhod yoki Majnunga qiyoslamasligini aytadi. Shu joyda oshiq mashuqani ko`klarga ko`tarib o`zini unga oshiq bo`lishga ham loyiq emasligini bildiradi. Bu baytda ikkita talmeh san'atidan foydalanilgan. Layli va Majnun, Farhod va Shirin ismlari talmehdir. Talmeh (arab-nazar solmoq, ishora qilmoq) –she'rdan mashhur qissa, mashhur bayt mashhur maqolga ishora qilish usuli. Men va sen so`zlari esa tazod san'atini hosil qilmoqda. Sarvinozim va qiyosim so`zlari mutloq qofiya bo`lib kelgan. Raviydan keyin harflar kelgan qofiyalarni mutlaq qofiya deb atash qabul qilingan. Lekin bu baytda raviydan keyin so`zlar kelgan. Har baytda takrorlanib kelayotgan yo`q so`zi radif hisoblanadi. Qofiyadan keyin takrorlanadigan so`z yoki so`zlar birligi radif deyiladi. Endi keying baytni tahlil qilsak;

Sen har bir iltifot etgan ko`ngil osmonda lochindir,  
Qolib chetda nigohingdan, mening bu imtiyozim yo`q.

Sen iltifot etgan ko`ngil osmonda xuddiki lochin kabi parvoz etsa, men sening nigohingdan chetda qolidim, mening bir imtiyozim yo`q nazaringga tushishga-demoqda shoir. Imtiyozim so`zi mutlaq qofiya bo`lib kelgan. Birinchi misra boshidagi-sen va ikkinchi misra o`rtasidagi-men so`zi tazodni hosil qilgan.

Ko`zimdan ko`ngilima botdi umidlar sen ketib qolgach,  
Quyosh yanglig` lovullashga tuganmas ehtirosim yo`q.

Sen ketib qolgach, ko`zimdan ko`ngilimga umidlar botdi. Quyosh kabi lovullab yonishga, tugamaydigan ehtirosim yo`q. Quyosh yanglig` lovullash bu yerda shoir tashbeh san'atidan foydalanadi. Tashbeh hozirgi adabiyotshunoslikda o`xshatish deb yuritiladi. U shunday san'atki, unda so`zlarda ifodalangan ikki yoki

undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o`rtasida mavjud bo`lgan o`xshashlik, sifat va belgidagi umumiylik qiyoslanadi, o`zaro solishtiriladi, tasvirlanayotgan narsa-hodisani ayrim xususiyati yorqin, chuqurroq va ta'sirliroq ochib beriladi.

Sen aytgan ta'nalarga tog` chidar, toshlar berar bardosh,  
Mening bo`lsa vujudim tog` emas, toshdan libosim yo`q.

Mashuqa shunday ta'nalarni qilganki, unga faqat tog` va toshlar bardosh beroladi. Oshiq o`zini ojiz hisoblab vujudim tog` emas, libosim tosh emas deydi.

Qayon ketmak kerak sensiz, bilolmasman sira, lekin-  
Ming ildiz otganim bu elda bir lahza turosima yo`q.

Sira bilmasman, sensiz qayoqqa ketmoq kerak, ming ildiz otganim bu elda endi turorim yo`q. Shoir mashuqasiz qayerga borishini bilmasligini aytadi, ming ildiz otgan o`z elida ham lahza qololmasligini takidlaydi.

Seni sevdim va sensiz men chaqinman, nuri yo`q zarra,

Seni sevdim va sensiz qaldiroqman, guldirosim yo`q,

Ushbu baytning har ikkala misrasida tazod san'ati qo'llangan. Chaqin va nuri yo`q zarra so'zlar, keyingi misradagi qaldiroq va guldiros so'zlari tazod san'atini hosil qilgan. Tazod (ar. – zid qo'yish, qarshilantirish) – baytda ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llashga asoslangan she'riy san'at. Shoir ikkala tazod san'atidan mohirona qo'llagan. Keyingi baytda ham tazod san'atini ko'rishimiz mumkin.

Unutding nogohon sen Matnazarni, bu azobingga

Seni yod aylamakdin o'zga xech bir e'tirozim yo`q.

Unutmak va yod aylamak so'zlari ham tazod bo'lib kelgan. Nogohon mashuqa o'z oshig'ini unutadi, oshiq bo'lsa azobga qolib uni yod etishga hech qanday etirozi yo'qligini aytadi. E'tirozim so'zi- sarvinozim, qiyosim, imtiyozim, ehtirosim, libosim, turosим, guldirosim kabi qofiya bo'lib kelgan. Ushbu g'azal xalqona tilda, tushunishga oson qilib yozilgan. Bugungi kunda g'azal yozish albatta yozuvchidan katta mahorat talab etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bu g'azal Matnazar Abdulhakim ijodidagi ajoyib ishqiy g'azallardan biridir. G'azalda shoir o'z ichki kechinmalarini yorga aytarkan, yorsiz ahvoli yaxshi bo'lmasligini takidlaydi. Har bandda yorga murojat qilib, men tog` emasman, meni toshdan ko'ylagim yo`q, menga qancha zulm qilsang ham zarra etirozim yo`q deb yorni ko'klarga ko'taradi. Yorning azoblariga chidolmasligidan qiynaladi. Ushbu g'azalda majoziy ma'no bor. Shoir g'azalda go'zal qizni emas, balki Allohni nazarda tutyapti. Ya'ni seni nigohingga tushgan osmonda lochin kabi parvoz qiladi, men sendan chetda, nazaringga tushishga esa imtiyozim yo`q deb Allohdan nazarida bo'lishni aytgan. G'azal boshdan oxirgacha mana shunday chiroyli yozilgan. Oshiq Allohning ishqida Majnun yo Farhod bo'lishga arzimasa ham unga muhabbati cheksiz ekanligini bildirmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.T.Boboyev „Adabiyotshunoslik asoslari“,„O'zbekiston“ nashriyoti Toshkent 2002-yil 397-bet

2.QOZOQBOY YO'LDOSHEV, BEGALI QOSIMOV, VALIJON QODIROV, JALOLBEK YO'LDOSHBEKOV 7-sinf uchun darslik «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2017 231-bet

3.QOZOQBOY YO'LDOSHEV, BEGALI QOSIMOV, VALIJON QODIROV, JALOLBEK YO'LDOSHBEKOV 7-sinf uchun darslik «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2017 231-bet

4.Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov,„Adabiyot“ 10-sinf uchun darslik Komila Usmonova «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent– 2017 167-bet

5.Tadjixon Sabitova „NAVOIY IJODIDA BADIY SAN`ATLAR” maqolasi Scientific Journal Impact Factor Academic Research, Uzbekistan [www.ares.uz](http://www.ares.uz) 1083-bet  
6.<https://n.ziyouz.com>